



## RATSIONALIZATORLIK TAKLIFI VA INTELEKTUAL MULK OBYEKTLARINING O'ZARO KESISHISH VA XORIJIY

### TAJRIBA BILAN QIYOSIY TAHLILI

**Abdug'afforova Munavvar Xasan qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xususiyl huquq fakulteti, 4-bosqich talabasi

[munavvarabdugaffarova@gmail.com](mailto:munavvarabdugaffarova@gmail.com)

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7854895>

#### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> April 2023

Accepted: 21<sup>th</sup> April 2023

Online: 22<sup>th</sup> April 2023

#### KEY WORDS

*Ratsionalizatorlik taklifi, intellektual mulk obyekti – ixtiro, Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO), Qizig'iston qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori, ixtirochilik*

#### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ratsionalizatorlik taklifi va intellektual mulk obyektlarining o'zaro o'xshashliklari va farqli jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek milliy qonunchilik va xorijiy mamalakatlarda bu faoliyatning huquqiy tartibi bayon etilgan.*

Intellektual mulkda ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar muhim o'rin tutadi shuningdek, korxonalarining texnik faoliyati va taraqqiyoti uchun ratsionalizatorlik takliflari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu borada tahliliy material tayyorlashda, avvalo, ratsionalizatorlik takliflari aslida nima ekanligini oydinlashtirib olamiz. Ratsionalizatsiya taklifi – bu taqdim etilgan korxonalar, tashkilot yoki muassasa uchun yangi va foydali bo'lgan va buyum dizayni, ishlab chiqarish texnologiyasi va mexanizmlarini o'zgartirishni yoki ishlatiladigan materiallar tarkibini o'zgartirishni nazarda tutadigan texnik yangi yechim hisoblanadi. Bu sohada bo'yicha joriy yilning 10-avgustidagi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori tasdiqlangan bo'lib, unga muvofiq Innovatsiya vazirligining nodavlat notijorat shaklidagi O'zbekiston Ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati tashkil etilish nazarda tutilgan. Shu bilan birga Innovatsion rivojlanish vazirligiga bir nechta vazifalar yuklatilgan ular:

- ✓ Respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- ✓ Davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan tashkilotlarning ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini muvofiqlashtirish;



- ✓ Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil etishga va ularning faoliyatiga ko'maklashish;
- ✓ Ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rgazmalar hamda ko'rik-tanlovlar o'tkazish;
- ✓ Respublika darajasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar g'oliblarini ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirishda imtiyozlar berish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga takliflar kiritib borish.

Yuqorida belgilangan vazifalardan shuni tushunish mumkinki yurtimizda novator va ratsionalizator va ularning faoliyatini bo'lgan ehtiyojimiz katta ekanligini anglatadi. Hozirda respublika bo'ylab "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" I-Respublika tanlovi o'tkazilganligi yaqqol namunasi hisoblanadi. Mazkur qarorning qolgan qismini tahlil qilishni davom etadigan bo'lsak, qarorning 5-xatboshisida tanlov g'oliblariga pul mablag'lari taqdim etilishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari yoshlarga oid bir qator imkoniyatlar kiritilgan yosh ixtirochi ratsionalizatorni oqishga jalb qilish ularni oily ta'lim muassasalarida imtiyozli ravishda o'qishga amaliy yordam berish nazarda tutilgan. Ratsionalizatorlik sohasini hozirgi amalda bo'lgan qunchilik bilan o'rganadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqilgan "Ratsionalizatorlik faoliyati to'g'risida"gi nizom bilan tanishish lozim. Mazkur nizomga ko'ra, **ratsionalizatorlik taklif** bu berilgan korxonaga uchun yangi va foydali bo'lgan buyum konstruksiyasini, ishlab chiqarish texnologiyasini, material (modda) tarkibini yaratish yoki o'zgartirishni nazarda tutadigan texnik yechim, shuningdek, korxonaga uchun yangi bo'lgan va mehnat, xomashyo, yoqilg'i-energetika va boshqa moddiy yoki moliyaviy manbalarni tejaydigan tashkiliy yechimlar hisoblanadi. Ushbu normaga sharx beradigan bo'lsak, bunday takliflar korxonaning **ishlab chiqarish unumdorligini**, unga ketadigan **xarajatlarni kamaytirishi** shu bilan birga **ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni** ham kamaytirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim. Yuqorida ta'kidlangan nizomga ko'ra, ratsionalizatorlik taklifi **shartli belgilar, qoidalar, me'yoriy-uslubiy hujjatlar, ishlab chiqarish ahvolini og'irlashtiradigan yechimlar, faqat buyuning tashqi shakliga oid bo'lgan yechimlar; ilmiy-tadqiqot, loyiha, konstruktorlik, texnologik tashkilotlar hamda korxonalarining ana shunday bo'linmalari muhandislik texnik, ilmiy xodimlari tomonidan xizmat vazifalari yoki shartnoma ishlarini bajarish jarayonida yaratilgan yechimlardan** iborat bo'lmasligi kerak.

Ratsionalizatorlik taklifi bo'yicha guvohnomasini rasmiylashtirish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, **birinchi navbatda** taklif bilan chiqayotgan fuqaro korxonaga rahbariga ariza bilan murojaat qiladi. Fuqaro o'z arizasida ratsionalizatorlik taklif yechimning bayoni va uni amaliyotda qo'llash haqidagi barcha ma'lumotlarni kiritib o'tishi lozim. Korxonaga rahbarining harakatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu holatda arizani ko'rib chiqish rad qilish va uni tadbiq etish to'grisidagi masalasi hal qiladi. Agar ushbu taklif iqtisodiy yoki ijobiy foyda oladigan bo'lsa, ushbu taklif korxonaga faoliyatiga tegishli bo'ladi va qabul qilinishi lozim. Korxonaga rahbari arizani qabul qilish yoki rad etish to'grisidagi qarori bo'yicha ratsionalizatorlik taklifi bilan chiqayotgan shaxsga 5 kun ichida xabar berilishi zarur. Ariza rad etilgan taqdirda taklif kiritgan shaxs 2 oy muddat ichida shikoyat arizasi berishi va shikoyat esa 1oy muddatda o'rganilib chiqilishi lozim. Shikoyat O'zbekiston Respublikasi Ixtirochilar va ratsionalizatorlardan jamiyati boshlang'ich tashkilot kengashi vakillaridan iborat maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi va shikoyat ko'rilayotgan paytda arizachi



shaxsan o'zi qatnashishi mumkin. Komissiya tomonidan chiqarilgan qaror qayta ko'rib chiqilmaydi. Ratsionalizatorlik taklifi qabul qilingan holatda "Ratsionalizatorlik faoliyati to'g'risida"gi nizomga ko'ra, ushbu taklifni yaratgan fuqaroga **guvohnoma** taqdim etiladi. Mazkur guvohnomada ratsionalizatorlik taklifi rostan ham yangi yechim ekanligi tan olinadi, mualifning ismi sharifi uning taqdim etgan taklifi ustun ekanligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Mazkur nizomning 11-xatboshisiga muvofiq, buyum (asbob) konstruksiyasiga yoki material (modda)ga tegishli ratsionalizatorlik taklifi tayyorlanayotgan yoki foydalanilayotgan mahsulotda qo'llanilgan kundan boshlab foydalanilgan hisoblanadi. Tashkiliy yechim, shuningdek, algoritm, EHM uchun dasturdan iborat ratsionalizatorlik taklifi qo'llangan kundan boshlab foydalanilgan hisoblanadi. Ushbu normadan ko'rinadik, agar korxonalar taklifni o'z ishlab chiqarish jaroyinida qo'llasa undan foydalangan hisoblanadi va korxonalar taklif beruvchiga mukofot berish majburiyati yuzaga keladi. Mukofotning miqdori ushbu nizomning 15-xatboshiga ko'ra mehnatga eng kam haq to'lashning 25% tashkil etishi belgilangan. Nizomning 16-xatboshiga ko'ra, agar bir nechta korxonalar taklifdan foydalansa har biri alohida mukofot puli berishi lozim. Masalan, ratsionalizatorlik taklifi 6ta korxonalar o'z ishlab chiqarish jarayonida qo'llasa, shuncha korxonalar mukofot puli taqdim etiladi. Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda quyidagi xulosa kelish mumkin. Ratsionalizatorlik taklifi ma'lum ishlab chiqaruvchi korxonalar raxbariga ariza orqali taqdim etiladi. Ushbu taklif korxonalar miqyosida yangi bo'lishi, ishlab chiqarish faoliyatini oshirishi lozim.

Shu o'rinda ixtiro tushunchasiga ta'rif berish lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namulari to'g'risida"gi Qonuning 6-moddasiga ko'ra, ixtiro har qanday sohada **yangi, ixtirolik darajasiga ega** va uni **sanoatda qo'llash mumkin** bo'lishi zarur. Bundan ko'rinadiki, ixtiro bo'lishi uchun butun dunyo miqyosida avval mavjud bo'lmagan, har qanday sohada bo'lishi unda foydalanish imkoniyati o'z ichiga olishi zarur. Ixtironi bo'lgan mualiflik huquqini belgilash hujjati patent hisoblanadi. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namulari to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasiga ko'ra, ixroga patent olish uchun ixtironi yaratgan shaxs tomonidan vakolatli organga talabnoma kiritiladi. Mazkur talabnoma o'z ichida quyidagi ma'lumotlarni qamrab olishi zarur ular:

- ixtironing mualifi, uning turar joy manzili, ariza;
- ixtiro haqida barcha ma'lumotlar ya'ni ixtironing ishlash jarayoni;
- ixtiro chizmalari, ixtiro referati.

Talabnoma belgilangan tartibda vakolatli organ hisoblangan Itektual mulk departamenti tomonidan rasmiy ekspertizadan o'tkaziladi. Qonunda belgilangan tartibda ixtirochiga patent taqdim etiladi. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namulari to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasining 7-qismiga ko'ra, ixtiro bo'lgan patent amal qilish muddati yigirma yilni tashkil etadi. Ushbu davr mobaynida ixtiro egasi o'zi yaratgan ixtirodan foydalanadi. Mazkur moddaning 8-qismiga ko'ra, patent muddati patent egasining iltimosiga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan qonun va normativ hujjatlarga ko'ra ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilish mumkin. O'xshash jihatlarga to'xtaladigan bo'lsak, **birinchidan**, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifi ham yangi avval ma'lum bo'lmagan bo'lishi lozim. **Ikkinchidan**, ikkisi ham sanoatda foydalanish imkoniyatini taqdim etishi kerak. **Uchinchidan** ikkisi ham muhofaza hujjatiga ega. To'rtinchidan esa, ixtiro va ratsionalizatorlik



taklifida bir nechi shaxslar tomonidan yaratilishi va ular hammualif deb e'tirof etilishi mumkin. Farqli jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, **birinchidan**, ratsionalizatorlik shartnomasida qilingan yangilik korxonaga uchun yangilik bo'lishining o'z yetarli ixtiroda esa avval butun barcha sohada mavjud bo'lmasligi keark. **Ikkinchidan**, ratsionalizatorlik taklifida muhofaza hujjati guvohnoma deb yuritilsa, ixtiroda patent so'zi qo'llaniladi. **Uchinchidan**, muddat masalasi ixtiroga bo'lgan patent muhofazasi 20 yil muddat tashkil etsa ratsionalizatorlikda 1 oy muddat belgilangan. **To'rtinchidan**, vakolatli organda faqrlanadi ixtiro bo'yicha Intelektual mulk departamenti bo'lsa, ratsionalizatorlik O'zbekiston Respublikasi ixtirochilar va ratsionalizator jamiyati vakolati organ hisoblanadi.

Ixtiro va ratsionalizatorlik faoliyatini xalqaro tarzda o'rganib chiqadigan bo'lsak, Butun jahon intellektual mulk WIPO tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Ixtirolar, sanoat namunalari va ratsionalizatorlik takliflari to'g'risida"gi Qonunni foydalanamiz. Shu o'rinda Butun jahon intellektual mulk tashkiloti haqida ma'lumot berish lozim. WIPO intellektual mulk (IP) xizmatlarini siyosatini, axborot almashinuvini va hamkorlikni amalga oshiruvchi Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'z-o'zini moliyalashtirgan tashkilot hisoblanadi. Ushbu tashkilotga 193 davlat a'zo. O'zbekiston BIMT ga a'zo bo'lib, kirgandan so'ng uning 20 ga yaqin shartnomalarini ratifikatsiya qilgan. Bularga misol sifatida "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonun, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun, "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. BIMTning vazifasi barchaning manfaati uchun innovatsiyalar va ijodkorlikni ta'minlaydigan muvozanatli va samarali xalqaro intellektual mulk tizimini rivojlantirishga rahbarlik qilishdan iborat. BIMT "Ixtirolar, sanoat namunalari va ratsionalizatorlik takliflari to'g'risida"gi Qonunining 4- bobi 72-moddasi 1-qismida keltirilishicha, **ratsionalizatorlik taklifi** - ishlab chiqarish yoki ekspluatatsion xususiyatdagi har qanday texnik takomillashtirish va mehnat xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish yoki atrof-muhitni muhofaza qilish muammosini hal qilishga qaratilgan yechim hisoblanadi va ratsionalizator o'z taklifini tasarruf etishga haqli. Bizning qonunchiligimizga ko'ra, atrof-muhitni muhofaza qilish mehnat muhofazasi alohida ko'rsatilib o'tilmagan. Mening fikrimcha, bizning qonunchilikda ham ushbu tushunchalarni kiritib o'tishimiz zarur. Ayniqsa, bugungi kunda barcha davlatlarda bo'lgani kabi bizning hududda ham atrof muhit muammolari mavjud shu sababli atrof-muhit muhofazasini kiritib o'tish o'rinlidir. Ushbu qonunning 73-moddasiga to'xtaladigan bo'lsak, ratsionalizator o'z ish beruvchisiga ratsionalizatorlik taklifini, agar u ish beruvchining ishi yoki faoliyati doirasiga kirsak, taklif qilishi shart. Bu moddada belgilanishicha agar ratsionalizatorlik taklifi ishchining mehnat shartnomasiga ko'ra uning majburiyati bo'lsa, ish beruvchiga taklifini berishi shart. Ushbu moddaning ikki qismiga ko'ra, ratsionalizator, agar uning ish beruvchisi taklif olingan kundan boshlab ikki oy ichida ratsionalizator taklifini qabul qilish to'g'risida shartnoma tuzmasa, ratsionalizator o'z ratsionalizatorlik taklifini cheksiz tasarruf etishga haqli. Ushbu moddadaga sharx beradigan bo'lsak, agar ishchi o'z ish beruvchisi bilan ikki oy mobaynida ratsionalizatorlik shartnomasi imzolamagan bo'lsa o'z taklifini ish beruvchi taqdim etmaslik huquqi mavjud. BIMTning 74-moddasiga to'xtaladigan



bo'lsak, ratsionalizatorlik taklifidan foydalanish huquqi ish beruvchi va ratsionalizator o'rtasida ratsionalizatorlik taklifi taklifini qabul qilish to'g'risidagi bitim va tegishli haq to'lash to'g'risidagi shartnoma tuzilgan paytdan boshlanadi. Bundan shuni tushunish mumkinki, taklifning ish beruvchiga o'tishi shartnoma imzolagandan so'ng yoki ish beruvchi taklif haqini to'lagandan so'ng ishchi taklifni unga taqdim etadi. Ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bo'yicha Qirg'iziston Respublikasining qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2002-yilda qabul qilingan "Ratsionalizatorlik takliflari to'g'risida"gi maxsus qonuni mavjud. Uning umumiy qoidalar bo'limida belgilanishicha ratsionalizatorlik takliflarida ham nomulkiy huquq mavjudligi va qonun bilan himoyalaniishi belgilangan. Bu normani O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 1992-yilning 28-dekbrdagi "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati to'g'risida"gi nizomda bu borada so'z yuritilmagan. Mening fikrimcha, ushbu nizomga ratsionalizatorning nomulkiy huquqlari haqida normalar kiritilishi lozim. Bundan tashqari Qirg'izistonning yuqorida keltirilgan qonuning 2-chi bobining 6-qismida ratsionalizatorlik taklifida uzoq muddat qo'llanilishi zarur degan talabi va ekologiyaga yomon ta'siri bo'lmasligi kabi talablarni uchratish mumkin. Bu kabi normlarga ham afsuski "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati to'g'risida"gi nizomda belgilanmagan.

Yuqorida keltirilgan milliy va xorijiy huquqiy manbalarga tayangan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Ratsionalizatorlik taklifi to'g'risidagi qonun hujjatlarimizda bir qancha kamchiliklar mavjud. Birinchidan, bu borada ixtiro, sanoat namunasi va foydali modellar qonununiy jihatdan tartibga solingan ya'ni u borda maxsus qonunimiz mavjud va Fuqarolik Kodeksining 62-bobi ushbu mazvularga bag'ishlangan lekin ratsionalizatorlik takliflari borasida to'liq ma'lumot berilmagan. Ikkinchidan, BIMTning "Ixtirolar, sanoat namunalari ratsionalizatorlik takliflari to'g'risida"gi Qonunining 4- bobidagi ratsionalizatorlik takliflar atrof-muhit va mehnat muhofazasi bo'yicha ham yechim bo'lishi kerakligi belgilangan. Bu kabi talab ham bizning qonunchiligimizga kiritilishi lozim deb o'ylayman. Uchinchidan, Qirg'iziston qonunchiligida belgilanishicha, ratsionalizatorlik taklifi ham uzoq muddatli bo'lishi belgilangan ekan bizda bu talabning bo'lishi ishlab chiqaruvchi korxonalarining faoliyatini uzoq muddat mobaynida samarali ish olib borishini ta'minlaydi. Bundan tashqari ratsionalizatorlarning faoliyati va ularning taklifi ixtirochi va uning ixtirosi kabi maxsus qonun normalarida belgilanishi zarur deb hisoblayman.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29- avgutsdagi 397-II-son "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunari to'g'risida"gi Qonuni;
2. Qirg'iziston Respublikasining "Ratsionalizatorlik takliflari to'g'risida"gi Qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qarori;
4. <https://wipolex.wipo.int/es/text/129692>;
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasining-intellektual-mulk-muhofazasi-bo-yicha-butunjahon-intellektual-mulk-tashkiloti-bilan-hamkorlik>.
6. Bakhramova, Mokhinur. "The role and importance of online arbitration and electronic dispute resolution in private international law." *Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения.* 2021.



- [https://www.elibrary.ru/ip\\_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Er u%2Fitem%2Easp%3Fid%3D46968096](https://www.elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Er u%2Fitem%2Easp%3Fid%3D46968096)
7. Rustambekov, Islambek, and Mokhinur Bakhramova. "Legal Concept and Essence of International Arbitration." *URL: https://www. ijsshr. in/v5i1/Doc/18. pdf: 122-129.* <https://www.ijsshr.in/v5i1/Doc/18.pdf>
8. Sardor Yusupov. (2022). New directions of development of artificial intelligence and the importance of their legal regulation. *The Peerian Journal*, 5, 170–174. Retrieved from <https://www.peerianjournal.com/index.php/tpj/article/view/122>
9. Bahramova, Mohinur Bahramovna. "Nizolarni onlayn hal qilish (ODR) va uning xalqaro yurisdiksiyasi." *Интернаука* 35-2 (2021): 43-44. [https://www.elibrary.ru/ip\\_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Er u%2Fitem%2Easp%3Fid%3D46653440](https://www.elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Er u%2Fitem%2Easp%3Fid%3D46653440)
10. Yusupov, Sardor SUN'IY INTELLEKT VA ROBOTOTEXNIKA SOHASI YUTUQLARINING QONUNCHILIKKA MUVOFIQ YURIDIK SHAXS MAQOMIGA EGA BO'LISHINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI // ORIENSS. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-robototexnika-sohasi-yutuqlarining-qonunchilikka-muvofiq-yuridik-shaxs-maqomiga-ega-bo-lishining-ilmiy-nazariy>
11. Bakhramova, Mokhinur. "Perspectives Of Development Of Arbitration Legislation And Law Enforcement Practice In Uzbekistan." *European Journal of Molecular & Clinical Medicine* 7.1 (2020): 3586-3593. [https://ejmcm.com/article\\_4172\\_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf](https://ejmcm.com/article_4172_46bc5c3ed433bbd8f238921032e63b47.pdf)
12. Yusupov, S. . (2022). Psychological Issues in Robotic systems and Advanced Computer Legal Regulation . *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 1(8), 17–22. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/198>
13. Yusupov, S. . (2022). Legalization of Artificial Intelligence: Significance and Necessity. *Miasto Przyszłości*, 26, 48–50. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/417>
14. Bakhramova, Mokhinur. "The Origins of the ODR System and Its Advantages over other ADR Methods." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.1 (2022): 527-530. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1045>